



KORRUPSIYA NIMA?

KORRUPSIYA — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Uning eng keng tarqalgan turlariga poraxo‘rlik, firibgarlik, nepotizm kiradi.

Poraxo‘rlik – pora olish yoki berish, pora olish-berishda vositachilik qilish harakatini qamrab oladigan tushuncha.

Firibgarlik – aldash yoki ishonchni suiste‘mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqini qo‘lga kiritishdir.

Nepotizm – qarindosh-urug‘ va oshna-og‘aynichilik aloqalarini hisobga olib, ushbu rishtalarni birinchi o‘ringa qo‘yib, kamchiliklari va boshqa xislatlariga e‘tibor bermay, siyosatda yoki tadbirkorlikda ularga maxsus sharoit yaratib berish, qo‘llab-quvvatlash, kasbida va ishida ko‘tarilib boylik orttirishida yordam berishdir.



KORRUPSIYAGA TO‘QNASHDINGMI, QO‘NG‘IROQ QIL!

HURMATLI RESPONDENTLAR!

Statistika sohasida korrupsiya, ya‘ni davlat xizmatchilari tomonidan xizmat vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, o‘z vazifalarini suiste‘mol qilish, ta‘magirlik, poraxo‘rlik kabi holatlarga duch kelsangiz

quyidagi “Ishonch telefon”larga murojaat qiling:

STATISTIKA AGENTLIGI:

 **11-51**

VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI:

 **(67) 225-19-70**

**KORRUPSIYANI BIRGA
YENGAMIZ!**



BUTUN JAHON KORRUPSIYAGA QARSHI

Korrupsiya davlatni ichidan yemiradi. Shu bois yer yuzidagi barcha davlatlar korrupsiyaga qarshi kurash olib boradilar.

BMT tomonidan 2003 yil 9 dekabrda Meksikaning Merida shahrida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish maqsadida 3 kun davom etgan konferentsiya tashkil etildi. Bu konferentsiya davomida 100 dan ortiq davlat tomonidan BMTning “Korrupsiyaga qarshi konventsiyasi” imzolandi. Konferentsiyaning birinchi ish kuni (9 dekabr) BMT tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro kuni” deb e‘lon qilindi.

Konventsiyaga 173 ta davlat a‘zo bo‘lib, O‘zbekiston ushbu hujjatga 2008 yil 7 iyulda qo‘shilgan. Shuningdek, mamlakatimiz 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining Istanbul harakat dasturiga qo‘shilgan. 2017 yil 3 yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

KORRUPSIYA OQIBATLARI

Davlatning konstitutsiyaviy asoslarni yemiradi;

fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga olib keladi;


davlat iqtisodiyotiga jiddiy ziyon yetkazadi;

halol mehnat bilan kun kechirayotgan kishilarga ma'naviy zarar yetkazadi;

xalq va davlat organlari o'rtasida ishonchsizlikni yuzaga keltiradi;

aholining salohiyatli qismi (ziyolilar, ilm-fan namoyandalari, tibbiyot xodimlari kabilar) mamlakatdan chiqib ketadi;

soliq, bojxona, moliya va boshqa shu kabi muhim sohalaridagi korrupsiya mamlakat iqtisodiyoti barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, muayyan guruhdagi shaxslarning noqonuniy boyishiga olib keladi.



KORRUPSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR

- **Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar.** Ushbu vaziyat mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi.

- **Aholi huquqiy savodxonligining pastligi.** Aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

- **Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi.** Mamlakatdagi notinchlik aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq nazari shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

- **Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi** - aynan bitta faoliyatning turli instantsiyalar tomonidan tartibga solinishi:

- ✓ aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- ✓ davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo'lgan daromatlardan kamligi;
- ✓ iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- ✓ inflyatsiyaning yuqori darajasi;
- ✓ mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- ✓ mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING USULLARI

Ichki nazorat. Boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar tashkil etish. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir.

Tashqi nazorat. Ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish. Aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish, OAVga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish. Demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

